



SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA MAHALLABAYGA BIRIKTIRILGAN SOLIQ INSPEKTORI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Xudoyberdiev Obiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-0080-8490

o.xudoyberdiyev@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston soliq tizimida mahallabay ishi tashkil etishni amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, mahallabay, korxonabay, soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВОГО ИНСПЕКТОРА, ЗАКРЕПЛЁННОГО ЗА МАХАЛЛЯМИ, ПРИ РАЗРАБОТКЕ СТРАТЕГИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ

Худойбердиев Обиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье освещаются роль и значение межрайонной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой сфере страны и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. В то же время рассматриваются некоторые важные реформы в организации работы махалли в налоговой системе Узбекистана, изучается зарубежный опыт, разрабатываются научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, махаллябай, предприятие, налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

WAYS TO IMPROVE THE MECHANISMS OF ORGANIZING THE ACTIVITIES OF TAX INSPECTORS ASSIGNED TO NEIGHBORHOODS IN THE DEVELOPMENT OF TAX POLICY STRATEGY

Khudoyberdiev Obiddin

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article highlights the role and importance of interregional tax inspection in improving large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for conducting business activities in the tax sphere in the country and further strengthening the confidence of business circles. At the same time, some important reforms in the organization of makhallabay work in the tax system of Uzbekistan are studied, foreign experience is studied, scientific and practical conclusions and proposals are developed on its application in our country.*

Keywords: *tax policy, makhallabay, enterprise, tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.*

Kirish.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Soliq tizimidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, jahon amaliyotida mahallabay ishi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, mahallabay ishi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning yetarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Yedronova va Mamikina fikricha, "Soliq siyosati" atamasining ta'rifiga quyida-gicha yondashish: "soliq sub'ektining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlari majmui, soliq siyosatiga munosabat...".

Yuriy va Beskidning fikrlariga ko'ra, "Soliq siyosati" toifasi turlicha "faoliyat" deb tavsiflanadi, uni tashkil etish soha-sida davlat, huquqiy tartibga solish va pul mab-lag'larining markazlashtirilgan fondlariga soliqlar va soliq to'lovlarini yig'ishni tashkil etish" talqin qilinadi.

Oreshin quyidagi ta'rifni taklif qiladi: "Davlatning soliq siyosati iqtisodiy siyosat, iqtisodiyotga ta'sir vositasi sifatida foydalaniladi. Soliqqa tortishning asosiy vositasi sifatida siyosatchilar quyidagilar-dir: takror ishlab chiqarish agentlarini soliq-qa tortish tartibi, alohida soliq to'lovchilar uchun soliq stavkalari darajasi, aholining ay-rim guruhlar uchun soliq imtiyozlari, davlat kreditlarini olish uchun soliqlarni kechiktirish va boshqalar.

Pokrovskiy (2011) ko'rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir qilish, xavf haqida mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar (xarajatlar), o'ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o'ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlanib, qaysiki ular rag'batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko'rsatishlarini ma'lum qilgan .

Aronov va Kashinlar (2004) o'zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning debitor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to'lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Kuznesovning (2016) fikriga ko'ra, soliq to'lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib yetmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo'lmazligi, Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to'siq bo'layotgan omillar va asosiy muammolar tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqishda mahallabay ishi mexanizmlarini dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo'nalishlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilib tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda, hukumat tomonidan davlat byudjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish, tadbirkorlik sohasidagi muammolarni bartaraf etish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish borasida bir qator islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent viloyatidagi tashrifi davomida soliq ma'murchiligini mahalla doirasida tashkil etish kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 22-iyulda "Mahallada soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi AF-44 sonli farmoyishi qabul qilingan. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektori to'g'risida ma'lumot

1-qadam. Biriktirilgan mahalla bo'yicha jadval ma'lumotlaridagi sub'ektlarga aniqlik kiritish maqsadida xatlovdan o'tkazadi va ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritayotganlarni belgilangan tartibda hisobga olishni tashkil etadi.

Masalan, Dexqonobod tumani Gulbuloq mahallasida mavjud yuridik shaxslar (*tijorat*) jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda 22 ta emas aksincha 18 ta ekanligi aniqlanganda:

a) ushbu mavjud bo'lmagan 4 ta sub'ektlarning yashash manzili bo'yicha borib o'rganilib, amalda faoliyat yuritish manzili bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot*) haqiqatda faoliyat ko'rsatayotgan manzilini aniqlash uchun yuboriladi;

b) mahallada mavjud yuridik shaxslar (*tijorat*) jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda 22 ta emas aksincha 26 ta ekanligi aniqlanganda, qo'shimcha 4 ta sub'ekt ma'lumotlari amalda faoliyat yuritish manzili bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot*) haqiqatda faoliyat ko'rsatayotgan manzilini aniqlash uchun yuboriladi;

v) agar mavjud bo'lmagan 4 ta sub'ektlarning umuman faoliyat ko'rsatmasligi aniqlangan taqdirda, yashash manzili bo'yicha mahalla faollari (*xokim yordamchisi*) bilan hamkorlikda korxona faoliyatidagi mavjud muammolarni o'rganiladi;

g) faoliyatlari bo'yicha muammolar yechimi murakkab bo'lib (*majud texnologiyalarni eskirganligi, tovar va xizmatlarga talabni mavjud emasligi*) sub'ektlarni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan chiqarish bo'yicha tushuntirishlar beriladi.

2-qadam. Mahallada mavjud yakka tartibdagi tadbirkorlar jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda 15 ta emas aksincha 12 ta ekanligi aniqlanganda:

a) ushbu mavjud bo'lmagan 3 ta YaTTlarning yashash manzili bo'yicha borib o'rganilib, amalda faoliyat yuritish manzili bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot*) haqiqatda faoliyat ko'rsatayotgan manzilini aniqlash uchun yuboriladi;

b) mahallada mavjud YaTT jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda 15 ta emas aksincha 22 ta ekanligi aniqlanganda, qo'shimcha 7 ta sub'ekt ma'lumotlari amalda faoliyat yuritish manzili bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot*) haqiqatda faoliyat ko'rsatayotgan manzilini aniqlash uchun yuboriladi;

v) agar mavjud bo'lmagan 4 ta sub'ektlarning umuman faoliyat ko'rsatmasligi aniqlangan taqdirda, yashash manzili bo'yicha mahalla faollari (*xokim yordamchisi*) bilan hamkorlikda YaTT faoliyatidagi mavjud muammolarni o'rganiladi;

g) faoliyatlari bo'yicha muammolar yechimi murakkab bo'lib (*majud texnologiyalarni eskirganligi, tovar va xizmatlarga talabni mavjud emasligi*) YaTT belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan chiqarish bo'yicha tushuntirishlar beriladi.

3-qadam. Jadvaldagi mol-mulk va yer solig'i to'lovchilari sonini mahallada mavjud mol-mulk va yer solig'i to'lovchilari soni bilan solishtiradi.

a) mahallada mavjud mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar soni jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda:

- mol-mulk solig'i to'lovchilar soni 763 nafar emas, balki, 803 nafar to'lovchilar borligi aniqlandi. Bunda, qo'shimcha 40 nafar to'lovchilarning ma'lumotlari amalda yashash manzili bo'yicha Kadastr agentligiga Soliq inspeksiyasi orqali yuboriladi;

- o'rganishda bir nafar soliq to'lovchiga bir nechta ob'ekt biriktirilishi oqibatida mahallada mol-mulk solig'i to'lovchilar soni 763 nafar emas, balki 700 nafarni tashkil etgani holda 63 nafar to'lovchiga noto'g'ri unikal kod orqali biriktirilgan ob'ektlarni o'chirtirish uchun yashash manzili bo'yicha mahalla ma'lumotnomasi asosida Kadastr agentligiga murojaat qilish tushuntiriladi.

b) mahallada mavjud yer solig'i solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar soni jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda:

- yer solig'i to'lovchilar soni 782 nafar emas, balki, 802 nafar to'lovchilar borligi aniqlandi. Bunda, qo'shimcha 20 nafar to'lovchilarning ma'lumotlari amalda yashash manzili bo'yicha Kadastr idorasiga Soliq inspeksiyasi orqali yuboriladi;

- o'rganishda bir nafar soliq to'lovchiga bir nechta ob'ekt biriktirilishi oqibatida mahallada yer solig'i solig'i to'lovchilar soni 782 nafar emas, balki 700 nafarni tashkil etgan holda 83 nafar to'lovchiga noto'g'ri unikal kod orqali biriktirilgan ob'ektlarni o'chirtirish uchun yashash manzili bo'yicha mahalla ma'lumotnomasi asosida Kadastr idorasiga murojaat qilish tushuntiriladi.

v) mahallada mavjud deklaratsiya asosida to'lovchi jismoniy shaxslar soni jadval ma'lumotlari bilan solishtirganda:

- to'lovchilar soni 32 nafar emas, balki, 28 nafar to'lovchilar borligi o'rganilib, 4 ta ob'ekt manzili boshqa mahallalarda joylashganligi bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot*) aniqlash uchun yuboriladi;

- to'lovchilar soni 32 nafar emas, balki, 38 nafar to'lovchilar borligi o'rganilib, aniqlangan ortiqcha 6 ta ob'ekt manzili boshqa mahallalarda bo'lganligi holati yuzasidan ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot orqali*) ma'lumotlar kiritiladi.

Yuridik shaxsning aylanmadan olinadigan soliq bazasi tahlili.

1-qadam. Soliq turi bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichning bajarilishi qo'yidagi misol ko'rinishida amalga oshirib boriladi.

Jami prognoz summasiga nisbatan AOSni tushumi va undagi ulushi foiz ko'rinishida:

joriy oy uchun belgilangan AOS prognozi 32 mln.so'mni va haqiqatda tushum 3 mln.so'm yoki 9,4%ni tashkil etib, bajarilishi bo'yicha prognozga tushumi kutilayotgan korxonalar bo'yicha hisoblangan soliqlar o'rganiladi;

- zarur hollarda soliq to'lovchilarga soliqlarni muddatida to'lash bo'yicha (*to'lovni keyingi oyning 15 kuniga qadar*) ogohlantirish va tushuntirish ishlarini olib borish;

- soliqni o'z vaqtida to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini bankka yuborilishi aks holda soliq organining inkasso topshiriqnomasi orqali majburiy tartibda undirishi va uning oqibatlari tushuntiriladi.

2-qadam. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektori hududdagi AOS korxonalarni jadval ma'lumotlari bilan solishtiradi. AOS korxonalari tomonidan topshirilgan hisobotlar asosida quyidagilarni amalga oshiradi:

- hisobotni taqdim etmagan AOS korxonalarini yuridik manziliga chiqqan holda o'rganadi;

- korxona faoliyat yuritib haqiqatda **hisobot topshirmagan bo'lsa**, hisobot topshirmaslik oqibatlari tushuntiriladi va hisobot taqdim etilishi ta'minlanadi;

- sub'ektlarning soliq hisobotlarini o'z muddatida taqdim etilishini ta'minlash, zarur hollarda qayta hisobot topshirish masalalari bo'yicha maslahatlar beriladi;

- korxona **faoliyatini to'xtagan bo'lsa**, uning sababi va muammolarini o'rganadi, soliq sohasi bo'yicha vakolati doirasida hal etish choralari ko'radi, boshqa muammolar yechimini hokim yordamchisi bilan birgalikda topadi.

3-qadam. Jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bunda tahlil quyidagi misol ko'rinishida amalga oshiriladi:

AOS korxonasi 7 oylik tovar aylanmasi 544,4 mln. so'mni, o'rtacha bir oylik aylanmasi 77,7 mln. so'mni, shu jumladan iyun oyida 72,2 mln. so'm, iyul oyida 69 mln so'mni tashkil etgan holda o'rtacha oylikka nisbatan -8,7 mln. so'm ($69-77,7=-8,7$) va o'tgan oyga nisbatan -3,2 mln. so'm ($69-72,2=-3,2$) manfiy farq sabablari o'rganiladi.

Tovarlarni (*xizmatlarni*) realizatsiya qilishdan olingan daromad AOS ob'ekti hisoblanadi. Jumladan amalga oshirilayotgan faoliyatdan olayotgan daromadlari bo'yicha:

a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining tuman Elektr tarmoqlari korxonasidan elektr-energiyani va Hududgazta'minot korxonasidan gazni mos oylar uchun iste'moli ko'rsatkichlari olinadi va resurslari iste'moli ko'paygan holda tovar aylanmasi kamaytirilgan bo'lsa, bu haqda soliq to'lovchiga ogohlantirish va Soliq inspeksiyasiga ma'lumot beriladi (*maxsus bot orqali*);

b) savdo va xizmat ko'rsatish korxonasi bo'yicha ONKM mavjud yoki mavjud emasligini, mavjudlarining faol yoki nafaolligini o'rganadi. Shuningdek, savdo korxonasiga tashrif buyurib ko'zdan kechirgan holda o'rtacha necha pullik mahsulotlar borligini hisob-kitob qilinadi;

v) faoliyatlar bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan rasmiy ogohlantirish berib, bunday huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun qonunchilikda belgilangan jazo choralari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi.

4-qadam. Biriktirilgan hududdagi aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ONKM hamda to'lov terminallari mavjudligi jadval ma'lumotlari bilan solishtiradi va ish faoliyatida ekanligini xatlovdan o'tkaziladi.

Ma'lumotlarga ko'ra mahalla hududidagi jami 9 ta korxonalardan ONKM o'rnatilgan 2 tasidan qolgan 7 tasida mavjud emasligi o'rganiladi. Bunda, ONKM o'rnatilishi lozim bo'lmagan faoliyat turlarini ishlab chiqargan mahsuloti yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarni naqd pulga amalga oshirayotganligi fakti aniqlangan taqdirda, rasmiy ogohlantirgan holda Soliq inspeksiyasiga axborot beriladi (*maxsus bot orqali*).

Huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun qonunchilikda belgilangan jazo choralari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi.

5-qadam. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ONKM hamda to'lov terminallaridan uzluksiz foydalanish holatlarini (*faol yoki nafaolligini*) doimiy monitoring qilib borish, natijasi bo'yicha chek bermaslik holatlari kuzatilganda rasmiy ogohlantirish taqdim etiladi.

Mavjud ONKM larni bir kunda 1 ta va undan kam chek urganlari hamda o'rtacha chek summasi 100 ming so'mdan kamligi bo'yicha o'rganiladi va natijasi bo'yicha inspeksiyaga ma'lumot beriladi.

O'zga xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli bo'lgan ONKM yoki to'lov terminallaridan foydalanish holatlarining oldini olish, to'lov terminallari mavjud bo'lsada, ulardan foydalanmasdan to'lovlarni jismoniy shaxslarning bank plastik kartasiga "Click" xizmati orqali qabul qiluvchilarni rasmiy ogohlantirish.

Huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun qonunchilikda belgilangan jazo choralari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi.

Yuridik shaxsning jismoniy shaxslarning daromad solig'i bazasi tahlili.

1-qadam. Soliq turi bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichning bajarilishi qo'yidagi misol ko'rinishida amalga oshirib boriladi.

2-qadam. Jami prognoz summasiga nisbatan daromad solig'i tushumi va undagi ulushi foiz ko'rinishida:

- Joriy oyda prognoz 32 mln. so'm belgilangan bo'lib, amaldagi tushum 1 mln. so'mni tashkil etdi, joriy oy yakuni bo'yicha 21 mln. so'm undirilishi lozim. Shundan, har bir sub'ektlar uchun hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi va prognozi bajarilishi imkoniyatlari o'rganiladi;

- zarur hollarda soliq to'lovchilarga soliqlarni muddatida to'lash bo'yicha (*to'lovning oxirgi kuniga taqamasdan*) ogohlantirish va tushuntirish ishlarini olib boradi;

- soliqni o'z vaqtida to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini bankka yuborilishi, yuborilmagan taqdirda soliq organining inkasso topshiriqnomasi orqali majburiy tartibda undirishi va uning oqibatlari tushuntiriladi.

3-qadam. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektori hududdagi daromad solig'i to'lovchi soliq agenti – korxonalarni jadval ma'lumotlari bilan solishtiradi. Aniqlangan tafovutlar bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- hisobotni taqdim etmagan 6 ta korxonani joyiga chiqqan holda o'rganadi;

- korxona faoliyat yuritib haqiqatda hisobot topshirmaslik sabablarini o'rganib, vakolat doirasida taqdim etish choralari tushuntiriladi.

- sub'ektlarning soliq hisobotlarini o'z muddatida taqdim etilishini ta'minlash, zarur hollarda qayta hisobot topshirish masalalari bo'yicha maslahatlar beriladi;

- korxona faoliyatini to'xtagan bo'lsa, uning sababi va muammolarini o'rganadi, soliq sohasi bo'yicha vakolati doirasida hal etish choralari ko'radi.

4-qadam. Jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bunda tahlil quyidagi misol ko'rinishida amalga oshiriladi:

- jadval ma'lumotlari bilan haqiqatda ishlayotgan xodimlar sonini solishtiriladi. Bunda:

- rasmiy band xodimlar joriy oydagi sonini o'rtacha oylik xodimlar soniga hamda o'tgan oylariga (*oxirgi ikki oy*) nisbatan solishtiradi;

- haqiqatda faoliyatini amalga oshirib, soliq hisobotida xodim sonini ko'rsatmagan yoki tovaraylanmasi hajmiga nisbatan kam ko'rsatilgan sub'ektlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan yuridik manziliga borib o'rganish o'tkaziladi;

- ishchilar sonini kuzatuvda tafovut aniqlangan taqdirda, sub'ektga norasmiy xodimlarini qonuniylashtirish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boriladi va fuqarolarni shartnoma asosida ish bilan ta'minlanishiga va bu orqali ijtimoiy muxofazaga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

5-qadam. Sub'ektlar tomonidan soliq agenti sifatida soliq to'lovchidan ushlanadigan daromad solig'i bo'yicha soliq bazasini tahlil qilinganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) jadval ma'lumotlaridagi o'rtacha oylik ish haqini rasmiy badn bo'lgan xodimlar sonini bilan taqqoslash orqali har bir xodimga to'g'ri keladigan oylik ish haqlari tahlil qilinadi;

b) eng kam miqdoridagi oylik ish haqidan (*1 sentyabr holatiga 980 ming.so'm*) kam (*5 mln.so'm/6 nafar=833 ming.so'm*) hisoblangan holatlar bo'yicha sub'ektga qayta hisobot topshirishi bo'yicha tushuntiriladi;

v) haqiqatda faoliyat ko'rsatib, soliq hisobotlarida xodimlar sonini aks ettirgani holda xodimlarga umuman oylik ish haqi hisoblamagan holatlar o'rganiladi;

g) jadval ma'lumotlariga ko'ra hisoblangan oylik ish haqlarning o'tgan oylarga yoki o'rtacha oylikka nisbatan solishtiriladi, aniqlangan farq bo'yicha sabablari o'rganiladi;

d) faoliyatlar bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan rasmiy ogohlantirish berib, bunday huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun qonunchilikda belgilangan jazo choralari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi.

Yuridik shaxsning ijtimoiy soliq bazasi tahlili

1-qadam. Soliq turi bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichning bajarilishi qo'yidagi misol ko'rinishida amalga oshirib boriladi.

Jami prognoz summasiga nisbatan ijtimoiy soliq bazasi tahlilini tushumi va undagi ulushi foiz ko'rinishida:

amaldagi tushum 79,7 mln.so'm, shundan Ijtimoiy soliq bazasi tahlili summasi 16 mln.so'm yoki 20% ($16/79,7 \times 100$) tashkil etadi;

joriy oy uchun belgilangan ijtimoiy soliq bazasi tahlili prognozi 79,7 mln.so'mni va haqiqatda tushum 16 mln.so'm yoki 20 %ni tashkil etib, bajarilishi bo'yicha prognozga tushumi kutilayotgan korxonalar bo'yicha hisoblangan soliqlar o'rganiladi;

- soliqni o'z vaqtida to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini bankka yuborilishi aks holda soliq organining inkasso topshiriqnomasi orqali majburiy tartibda undirishi va uning oqibatlari tushuntiriladi.

3-qadam. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektori hududdagi ijtimoiy solig'i to'lovchi soliq agenti – korxonalarni jadval ma'lumotlari bilan solishtiradi. Aniqlangan tafovutlar bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- hisobotni taqdim etmagan korxonalarni joyiga chiqqan holda o'rganadi;

- korxona faoliyat yuritib haqiqatda hisobot topshirmaslik sabablarini o'rganib, vakolat doirasida taqdim etish choralari tushuntiriladi.

- sub'ektlarning soliq hisobotlarini o'z muddatida taqdim etilishini ta'minlash, zarur hollarda qayta hisobot topshirish masalalari bo'yicha maslahatlar beriladi;

- korxona faoliyatini to'xtagan bo'lsa, uning sababi va muammolarini o'rganadi, soliq sohasi bo'yicha vakolati doirasida hal etish choralari ko'radi.

4-qadam. Jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bunda tahlil quyidagi misol ko'rinishida amalga oshiriladi:

- jadval ma'lumotlari bilan haqiqatda ishlayotgan xodimlar sonini solishtiriladi. Bunda:

- rasmiy band xodimlar joriy oydagi sonini o'rtacha oylik xodimlar soniga hamda o'tgan oylariga (*oxirgi ikki oy*) nisbatan solishtiriladi;

- haqiqatda faoliyatini amalga oshirib, soliq hisobotida xodim sonini ko'rsatmagan yoki tovaraylanmasi hajmiga nisbatan kam ko'rsatilgan sub'ektlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan yuridik manziliga borib o'rganish o'tkaziladi;

- ishchilar sonini kuzatuvda tafovut aniqlangan taqdirda, sub'ektga norasmiy xodimlarini qonuniylashtirish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boriladi va fuqarolarni shartnoma asosida ish bilan ta'minlanishiga va bu orqali ijtimoiy muxofazaga ega bo'lishiga ko'maklashadi. Bunda, 25 yoshgacha bo'lgan fuqarolarni ishga qabul qilgan korxonalarga (*davlat ulushi bo'lmagan va byudjet korxonalardan tashqari*) to'langan ijtimoiy soliq byudjetdan qaytarib berish imkoniyati tushuntiriladi.

5-qadam. Sub'ektlar tomonidan hisoblanadigan ijtimoiy soliq bo'yicha soliq bazasini tahlil qilinganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) jadval ma'lumotlaridagi o'rtacha oylik ish haqini rasmiy badn bo'lgan xodimlar sonini bilan taqqoslash orqali har bir xodimga to'g'ri keladigan oylik ish haqlari tahlil qilinadi;

b) eng kam miqdoridagi oylik ish haqidan (*1 sentyabr holatiga 980 ming.so'm*) kam (*5 mln.so'm/6 nafar=833 ming.so'm*) hisoblangan holatlar bo'yicha sub'ektga qayta hisobot topshirishi bo'yicha tushuntiriladi;

v) haqiqatda faoliyat ko'rsatib, soliq hisobotlarida xodimlar sonini aks ettirgani holda xodimlarga umuman oylik ish haqi hisoblamagan holatlar o'rganiladi;

g) jadval ma'lumotlariga ko'ra hisoblangan oylik ish haqlarning o'tgan oylarga yoki o'rtacha oylikka nisbatan solishtiriladi, aniqlangan farq bo'yicha sabablari o'rganiladi;

d) faoliyatlar bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan rasmiy ogohlantirish berib, bunday huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun qonunchilikda belgilangan jazo choralari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi.

Yuridik shaxsning yer solig'i bazasi tahlili

1-qadam. Mahallaga birlashtirilgan soliq inspektori yer maydoniga ega bo'lgan korxonalar soni jadvaldagi ko'rsatkichlar bilan haqiqatda mavjudligini solishtirib chiqishi lozim.

Agar farq aniqlansa, sub'ektlarning yuridik manzili bo'yicha borib o'rganilib, amalda faoliyat yuritish manzili bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasiga (*maxsus bot*) haqiqatda faoliyat ko'rsatayotgan manzilini aniqlash uchun yuboriladi;

2-qadam. Shuningdek yuridik shaxsga yer maydoni tegishliligi ya'ni yer maydoniga – egalik, mulk, foydalanish va ijara xuquqlari asosini aniqlash lozim. Agar ijara xuquqi asosida olgan bo'lsa ijara shartnomalari tuzilganligini kuzatuvdan o'tkazishi kerak.

3-qadam. Yer solig'i bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichining bajarilishi qo'yidagi misol ko'rinishida amalga oshirib boriladi. Jami prognoz summasiga nisbatan yer solig'ini tushumi va undagi ulushi foiz ko'rinishida:

Joriy yilda reja 176,9 mln. so'm belgilangan bo'lib, amaldagi tushum 150,8 mln.so'mni tashkil etdi, joriy yil yakuni bo'yicha 26,1 mln.so'm undirilishi lozim. Shundan, har bir sub'ektlar uchun hisoblangan yer solig'i tushumi va prognozi bajarilishi imkoniyatlari o'rganiladi;

- zarur hollarda soliq to'lovchilarga soliqlarni muddatida to'lash bo'yicha (*to'lovning oxirgi kuniga taqamasdan*) ogohlantirish va tushuntirish ishlarini olib boradi;

- soliqni o'z vaqtida to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini bankka yuborilishi, yuborilmagan taqdirda soliq organining inkasso topshiriqnomasi orqali majburiy tartibda undirishi va uning oqibatlari tushuntiriladi.

4-qadam. Mahallaga birlashtirilgan soliq inspektori mahalladagi yer solig'i to'lovchi korxonalarga tegishli yer maydonlarini jadval ma'lumotlari bilan solishtiradi.

Farq aniqlangan taqdirda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) *Yer uchastkalarining kadastr hujjatlariga muvofiqligi o'rganiladi;*

b) *Manzildagi yer uchastkalari kadastr ma'lumotlaridan farq qilsa, qo'shimcha yerlarni kadastr hujjatlarida aks ettirishi tushuntiriladi va tashkillashtiriladi;*

v) *Mahalliy Kengashlar tomonidan yer solig'ining 1 ga. yer uchun bazaviy stavkasining to'g'ri qo'llanilishi o'rganiladi.*

Bundan tashqari, o'tgan yil yakunidagi yer maydonlarining hajmi joriy yildagi yer maydoni o'rtasida farq aniqlansa, bu xaqida tadbirkorlik sub'ektini ogohlantiradi.

Yer maydoni qo'shilganligi, ya'ni hujjatsiz yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquq hujjalarida belgilangan hajmdan ortiqcha yer maydonlaridan foydalanish xolatlari mavjud bo'lsa, ular bo'yicha soliq stavkasi 4 barobar (*SK.429 moddasi*) oshirilgan stavkada qo'llanilishi to'g'risida tushuntiriladi.

5-qadam. Qaysi asoslarga ko'ra korxonaning qancha yer maydoniga yer solig'idan imtiyoz qo'llanilishi va amal qilish muddatlari o'rganiladi (*Soliq kodeksi, Prezident farmonlari, qarorlari va b.*).

6-qadam. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektori yer solig'idan yil boshiga qarz holatini va joriy yilda hisoblangan, to'langan soliqlar hamda to'lashga qolgan summalarini o'rganadi.

Neftchi MFYdagi yer maydoniga ega bo'lgan korxonalarning yil boshiga yer solig'idan qarzi 74,2 mln.so'mni, xisoblangan yer solig'i 56,1 mln.so'mni va to'langan soliq summasi 40,3 mln.so'mni, yoki 30,9% tashkil etadi. Qolayotgan 90 mln. so'm soliq qarzini kelib chiqish sabablarini o'rganadi:

a) yer maydoniga ega bo'lgan korxonalarning faoliyatni amalga oshirayotganligi;

b) sotilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha xaridorlar tomonidan mablag'lar to'lanmaganligi;

v) faoliyatni yuritish bilan bog'liq elektr-energiyasi va gaz yetkazib berishdagi muammolarni o'rganish va yoki hokim yordamchisi hamkorligida xal qilishda ko'maklashadi.

7-qadam. Mahallaga biriktirilgan soliq inspektori hududdagi yer solig'i to'lovchi korxonalari tomonidan topshirilgan hisobotlar asosida quyidagilarni amalga oshiradi:

- hisobotni taqdim etmagan yer solig'i to'lovchi korxonalarini joyiga chiqqan holda o'rganadi;

- korxona faoliyat yuritib haqiqatda hisobot topshirmagan bo'lsa hisobot topshirmaslik oqibatlarini tushuntiriladi va hisobot taqdim etilishi yordam ko'rsatadi;

- korxona faoliyatini to'xtagan bo'lsa, uning sababi va muammolarini o'rganadi, soliq sohasi bo'yicha vakolati doirasida hal etish choralarini ko'radi.

Bundan tashqari, soliq organi mas'ul shaxslarining funksional majburiyatiga qo'shimcha kiritish muammosini hal qiladi va ularni amalga oshirish mexanizmini rivojlantirib, uni takomillashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu moliyaviy majburiyatlarni ular tomonidan belgilangan tartibda bajarmaslik albatta, moliyaviy-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

1. MIB va sud ishi jarayonida bo'lgan soliq qarzdorligini maxalla inspektori yuklamasidan olib tashlash.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 704-son qaroriga 2-ilovasi 5-bandiga "to'qqiz oy mobaynida soliq hisobotlari taqdim etilmaganligi yoki "nol" hisobot topshirganligi" mazmunida o'zgartirish kiritish..

3. Xududda hujjatsiz tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan fuqarolarni dastur orqali anektani to'ldirish va Davlat xizmatlari markaziga yuborish mexanizmini joriy etish. Bunda Tadbirkorlikni qonuniylashtirish jarayoni soddalashadi va fuqaroni tadbirkorlik sub'ektiga o'tkazilishida soliq inspektori ko'maklashadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun to'lovlarni planshet orqali to'g'ridan-to'rg'i to'lash tizimini joriy etish.

4. Tadbirkorlik faoliyatini tugatish yoki tiklash istagida bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarni "Soliq mobil" ilovasida ma'lumotlarni shakllantirish uchun davlat xizmatlari anketasi shaklini yaratish. Bunda tadbirkor tomonidan STIR yoki JShShIRni anketaga kiritish orqali tugatish yoki rad etish tugmasini tadbirkorlik sub'ektining "FACE-ID" yoki "Barmoq izi" orqali tasdiqlash tizimini joriy qilish.

Adabiyotlar/ Литература /References:

Kodeks (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi, 640 b.

Kristina, F.B. (2004) *The Informal Economy*. Swedish International Development Cooperation Agency, SE-105 25, Стокгольм, Швеция.

Андреева, В.А. (2017) 'Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений', Экономика. Интерактивная наука, 4(14), стр. 136-140.

Жалонкина, И. (2012) Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, с.14.

Кузнецов, А.Л. (2016) Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект). [Электронный ресурс]. Доступно по адресу: <http://vasilieva.narod.ru/zhurnal/>.

Покровский, А.К. (2011) Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учебное пособие. Москва: Изд-во Кнорус, 160 с.

Шумпетер, Й. (2007) Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. Москва: Изд-во Эксмо, 864 с.